

**“BAYOZI YANGI” TO‘PLAMIDAGI JANRLAR TASNIFI****Najmiddinova Dildorabegim Otabek qizi**Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti  
universiteti Matnshunoslik va manbashunoslik  
fakulteti 2-kurs magistranti<https://doi.org/10.5281/zenodo.13950122>

**Annotatsiya:** ushbu maqolada “Bayozi yangi” to‘plamidagi janrlar, ularning qo‘llanilishi va ahamiyati borasida to‘xtalib o‘tamiz. Shoir Gulshan o‘zining lirik adabiyotga doir bilimini to‘plam orqali ifoda etar ekan, ushbu bilim orqali yangi g‘azal, ruboiy, mustazodlarni yanada ham chuqur o‘rganamiz.

**Abstract:** in this article, we will focus on the genres of the "Bayozi yangi" collection, their use and importance. As the poet Gulshan expresses his knowledge of lyrical literature through the collection, through this knowledge we will study new ghazals, rubai, mustazod more deeply.

**Kalit so‘zlar:** Gulshan, nazm, lirik janrlar, mumtoz adabiyot, g‘azal, mustazod, ruboiy.

Nazm o‘zining go‘zalligi, ohangi, dilkashligi, ta’sirchanligi va yuksak badiiyati bilan inson qalbini hamisha rom qilib kelgan. Chunki she’riy nutqadagi jozibadorlik, ranginlik va ravonlik birinchi mutolaadayoq kitobxon diqqatini tortadi, unga kuchli ta’sir qiladi. Bu, ayniqsa, mumtoz adabiyot namoyondalari ma’naviy merosiga xos muhim fazilatdir. Chunki ularning har bir so‘zi, ifoda va misrasi, pandu o‘giti insoniyat kamoloti uchun xizmat qilib kelmoqda.

Gulshan mumtoz adabiyotda yaratgan “Bayozi yangi” asari bizga yuksak badiiyat va jozibadorlik bilan bir qatorda turfa janrlar jamlanmasi ham taqdim etdi. Bu asar o‘zida g‘azal, ruboiy, na’t, munajat, musaddas, fard, muhammas kabi janrlarni mujassamlashtiradi. Asarda Navoiy, Muqimiy, Furqat, Musa Komiy, Musa Xislat Eshon, Musa Mirzoshoh, Mirza Shoshiy, Nasafiy, Xaziniy, Fuzliy kabi bir nacha shoir va nazm ahlining asarlari keltirilgan.

So‘rg‘ali holimni ey qoshi qalam kel ertaroq  
Yig‘lamoqdin qolmas ko‘zlarda nam kel ertaroq

Sandin ayru go‘sha hijron aro yolg‘iz topib  
O‘rtag‘a oldi mani dorul olam kel ertaroq  
(FURQAT)

Yo rab emish lutfiki ayt benamo banga  
Ko‘sstarma ul tariqaga ettayiz sango banga





Qita ayla oshnolig'imni anda g'ayrdur  
Onjoq o'z oshnolaring et oshno banga  
(FUZULIY)

Ul parilar xizmasingda oshno bo'lsun uka  
Oy yuzing yorim hamisha purziyo bo'lsun uka

Huri g'ilmonlar sani ishqing bila giryon bo'lub  
Ko'z tutub jannat ichinda mantanho buldum uka

Ushbu **g'azal** baytlarni takror-takror o'qir ekansiz, inson ko'ngli surur va hayajon bilan to'ladi va har safar bu olmos baytlarning yangi qirralarini kashf etasiz.

Faryod zadast falak jomi kabud  
Yoronam aykon ekan omda burud

Gar qoidi falak agar in boshad  
Yak ruz digar navbatho havohud shud  
Ushbu fors-tojik tiliga yozilgan Fuzuliy **ruboiysi** dunyoga ruju quymaslik, uning oltin qoidalari sening umring oxirigacha amalda bo'lishi aytib o'tilgan.

Jabbor Yazol xudovanda kabir ast  
Oroi cho'g' anjom doroi kishvaro ast  
(Na't)

Na't janri asosan, payg'ambar (lar) sha'niga aytiladigan maqtovdan iborat bo'lib, ko'pgina nazmchilar asarida uchraydi. "Bayozi yangi" asarida na't fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, 11baytda yozilgan.

Bor xudo erdi dilda g'am ishtiyoq kim  
Ko'rsam sani halok o'luram ko'rsam halok....  
(Fard)

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir yurtida yashab, bir ariqdan suv ichib umrguzaronlik qilishi, nafaqat ular hayoti turmush





tarzi, balki adabiyotida ham to'laligicha namoyon bo'ladi. Mumtoz adabiyotimizning lirik janrlari ham aynan o'zbek va fors-tojik tilida ifodalanishi ham bejziga emas. Gulshan o'zining to'plamida g'azal, fard, ruboiy, na't, munajat kabi yetuk janrlarni yig'ar ekan, ularning bejirimligini va betakrorligini yana bir bor namoyon qilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Gulshan, "Bayozi yangi" toshkentt
2. Qahramon To'xsanov, She'riy tarjima va adabiy tarjimalar. 2010..Buxoro nashriyoti
3. Wikipedia
4. <https://kh-davron>
5. [https:// portal.guldu.uz](https://portal.guldu.uz)

